BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Yuldasheva Nigora Sultanovna
GulDPI “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetentligi shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati haqida yoritilgan. Shuningdek, shu mavzu bo‘yicha tadqiqot olimlarning fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, integrativ yondashuv, integral, integratsiya, ta’lim-tarbiya jarayoni.

Abstract: this article covers the importance of an integrative approach to the preparation of future teachers for professional activities, the formation of professional competence. Also, research on the same topic analyzed the opinions of scientists

Keywords: professional training, professional competence, integrative approach, integral, integration, educational process.

Respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, kasbiy kompetentligi, raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish alohida ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi.

Pedagog olim, professor N.Muslimov tadqiqot ishida “Kasbiy shakllanish” tushunchasiga alohida to‘xtalib, “Kasbiy shakllanish – shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatini tanlash bilan bog‘liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha ehtiyojlar majmuasini, uning borliqqa, atrofdagilarga o‘ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi)”, deya ta’kidlagan.

N.Ahmedovaning ta;kidlashicha, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida qurishni takomillashtirish ta’limda integratsiyaning birligi fenomeni haqidagi ilmiy axborotni tadqiq qilish, integrativ yondashuv tushunchalarini va ularni chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tizimini tavsiflash uchun qo‘llashning maqsadga muvofiqligini tahlil qilishga asoslanadi.

B.Myullerning yangi inglizcha va ruscha lug‘atida mazkur terminga quyidagicha ta’rif berilgan: «Integral – 1) muhim; 2) to‘la, butun, yaxlit integrallashgan, integrativ – to‘la va butun qilish, butunni tashkil qilish, o‘rtacha qiymati yoki umumiy miqdorini aniqlash; 3) *mat.*integrallashtirish. Integratsiya –1.*mat.* integratsiya, integrallash; 2. Bir-biriga birlashtirish».

Izohlardan ko‘rinadiki, «integral» atamasi matematik tushunchani ifodalaydi, «integratsiya esa qismlarni birlashtirish tushunchasini bildiradi. Shu bois «integral», «integrallashgan» atamalarini «integrativ», «integratsiya», «integratsiyalashgan» atamalariga sinonim sifatida qo‘llash mutlaqo nojoiz.

Integratsiyaning universalligi shunda namoyon bo‘ladiki, u umumiy va universal fenomen, dunyoda integrativ xossalarga ega bo‘lmagan narsa va hodisa bo‘lishi mumkin emas. N.K. Chapayevning ta’kidlashicha, bu ontologik va gnoseologik reallikka, jonli va jonsiz tabiatning barcha sohalariga, inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan pedagogikaga ham aloqador, pedagogikada integratsiya o‘quv-tarbiya jarayonining barcha tomonlari: pedagoglar va ta’lim oluvchilarning faoliyati; o‘qitish va tarbiyalashning maqsadlari, printsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari faoliyati; pedagogik bilimlar faoliyatining barcha darajalarini ―qamrab oladi‖. Polimorfiklik, tadqiqotchining fikricha, integratsiyaning turli sifatlarda gavdalanish, bilish va inson faoliyatining xilma-xil sohalarida turli shakl (tur, tip) larga ega bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi.

Bu tushunchani o‘qitishning mazmuniy va protsessual tomonlarining birligi sifatiga qarab, M.N.Berulava ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda ta’lim oluvchilar bilimlarining tizimliligi va zichligi ortishi bilan kechadigan ta’lim mazmunining strukturaviy elementlarining o‘zaro ta’siri jarayoni va uning natijasini tushunadi.

Pedagogika ensiklopediyasida “integrativ yondashuv” tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: integrativ yondashuv – ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi ob’ektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k..)ni birgalikda qo‘llashni anglatuvchi tushuncha. Mazkur atama umumlashtirilgan yondashuvlarni ifodalaydi.

N.K.Chapayev o‘zining ilmiy tadqiqotida sanab o‘tilgan belgilar qatoriga yana ikkitasini qo‘shadi :

1) integratsiyaning universalligi va polimorfikligi;

2) butun va uning qismlari uyg‘un birligi.

Bo‘lajak o‘qituvchining integrativ yondashuv asosidagi kasbiy pedagogik faoliyati — o‘qituvchi-o‘quvchi‖ o‘zaro aloqasi negizida olib boriladi va aynan shu jarayonda ta’limiy tarbiyaviy, korrektsion, rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi.

Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka hamda tajribani hisobga olish, ularga tayanish ya’ni chet tilda kasbiy, kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni integratsiyalash, barobar takomillashtirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvning o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir. Nutq faoliyati turlarini integratsiyalash ayrimlikdan uyg‘unlikka olib keladi va nutq faoliyatining barcha turlarida erkin muloqot yuritish imkoniyatini shakllantiradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, ilmiy-ijodiy izlanishi, o‘z ustida ishlashi, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishida ta’lim tamoyillari, zamonaviy yondashuvlarni kasbiy faoliyatiga tatbiq qilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedova N.H. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.fals.dok.diss… Toshkent, 2020. – 268 b.

2. Берулава, М.Н. Интеграция содержания образования / М.Н.Берулава. – М.: Педагогика, Бийск: Науч.-изд. центр БиГПИ, 1993. – 172 с.

3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.fal….diss. Toshkent-2007. -281 b.

4. Мюллер В. Новый англо-русский словарь. New English- Russian Dictionary. Издательский дом Диалог. – М., 2003. –895 б .

5. Усманова Д. Инглиз тилига ўқитишда CEFR талабларин бажаришнинг ўзига хос жиҳатлари// Чет тилларни ўқитишни CEFR асосида такомиллаштиришнинг истиқболлари. Халқаро илмий- амалий конференция мақолалари тўплами. − Т., 2015. − Б.39.

6. Чапаев, Н. К. Интеграция образования и производства: методология, теория, опыт: монография / Н. К. Чапаев, М. Л. Вайнштейн. – Челябинск: ЧИРПО; Екатеринбург: ИРРО, 2007. – 408 с.